

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berish-pedagogik muammo

Экологическое воспитание дошкольников на фольклорной основе - педагогическая проблема

Ecological education of preschool children on the basis of folklore - a pedagogical problem

**A.Qodiriy nomli JDPI maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası dots. G.Kushakova
2-kurs magistr F.Tangirova**

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarga xalq topishmoqlari asosida ekologik tarbiya berish-pedagogik muammolar haqida fikrlar bayon qilingan

Резюме: Мнения о педагогических проблемах экологического воспитания дошкольников на основе народных загадок.

Abstract: Opinions on pedagogical problems of ecological education of preschool children on the basis of folk riddles

Insoniyat juda qadim zamonlardan buyon tabiat bilan extiyotkorona munosabatda bo'lishga intilib kelgan. Sababi, ibtidoiy inson tabiatdagi barcha mavjud narsa-hodisalarni o'zi kabi jonli (ruxi bor) deb o'ylab, ular bilan extiyotlik bilan muomala qilgan. Qadimgi odam tasavvuricha, too'u-toshlar, daryoyu-ko'llar, osmon jismlari barchasi jonlidir. Ibtidoiy insonning bunday qarashi animizm deb yuritiladi. Qadimgi insonlarning totemistik tasavvuricha, butun xayvonlar va o'simliklar olami insoniyat olami bilan qon-qarindoshdir va ular o'rtasida ayrim o'xshashlik va yaqinliklar mavjud. Ibtidoiy inson bu o'xshashlik va yaqinlikni daraxtlarning yil fasllariga qarab o'z ko'rinishini o'zgartirishida va xayvonlarning odamzot singari baxsi xatti-xarakatlarni bajarishida ko'radi. Masalan, xayvonlarning o'ziga yegulik axtarishi, bolalariga o'amxo'rligi, o'zi uchun extiyotkorlik choralarini ko'rishi, xavfdan ogox bo'lib yashashga intilishi, kezi

kelganda xatto sadoqatliligi kabi xususiyatlari insoniy xatti-xarakatlarni eslatadi. Yoki daraxtlarning yil fasllarini xis qilgan xolda xar faslga mos tarzda o'z ko'rinishini o'zgartirib turishi uning jonliligidan darak berib turadi. Shuning uchun inson imkon qadar ularni avaylashga intiladi. Ularni xuda-bexuda ranjitib qo'yishdan cho'chiydi. Chunki u o'zining yashashi, turmush kechirishi, kundalik istexmoli zarur bo'lgan aksariyat istexmol tovarlarini aynan o'simlik va xayvonot olamidan oladi. Shu boisdan inson ularning ranjishidan va o'ziga kerakli bo'lgan narsalardan maxrum etilishidan qattiq cho'chiydi.

Ibtidoiy inson o'z extiyojlarini qondiradigan, shuningdek, go'zal ko'rinishli, yoqimli, foydali narsalarda yaxshi ruxlar, aksincha, yoqimsiz, badbo'y, zararli narsalarda yomon ruxlar makon qurgan deb tushungan va shu asosda tabiat predmetlariga muomala qilgan. Shuning uchun ibtidoiy inson gullar, daraxtlar, suvliklar, o'simliklar va xayvonlar bilan extiyotkorona munosabatda bo'lgan. Ulardagi yaxshi va yomon ruxlarga ozor yetkazishdan qo'rqqan, shu qo'rquv va extiyotkorlik zahirida asta-sekin ekologik tarbiyaning ilk shartlari, ko'rsatmalari va talablari shakllana boshlangan. Ibtidoiy jamiyatda tabiat inson uchun xomiy-madadkor sanalgan. Inson uni jonli deb tasavvur qilgan va shuning uchun uning tilini topib yashashga, u bilan sirlashishga xarakat qilgan.

Ibtidoiy inson tabiatning rang-barangligiga, undagi ranglar jilosiga, shakl ko'rinishlariga, borliqdagi jonli va jonsiz narsalarning turiga, ko'rinishiga, jinsiga, xarakat-xolatiga, ovozigacha, miqdorigacha, tabiatda tez-tez sodir bo'lib turadigan stixiyali xodisalarga extibor berar ekan, tabiatning boyligi va qudratiga tan bergan va uning oldida u ojizligini xis etgan.

Qadimgi inson tabiatdagi xar bir rangning, xar bir shakl ko'rinishining, raqamlarning, xarakat-xolatning o'z mazmun-moxiyati bor deb tushunib, ularga sio'ingan. Shular asosida tabiatning sirliligini tan olgan.

Bulardan ko'rinadiki, ekologik tarbiyaning ilk ildizlari insoniyatning qadim turmush tarziga borib taqaladi. O'sha kezlardan insonlar tabiat bilan extiyotkorona muomalada bo'lishga intilishgan va buni yosh avlod ongiga singdirishga xarakat qilishgan.

Ibtidoiy odam o'z xayotining tabiat bilan chambarchas bog'liqligini xis qilgani bois, xatto olamning asosida xam to'rtta tabiat unsuri-yer, suv, xavo, olov (quyosh) yotadi deb qaragan va aynan shu tabiat resurslarini ko'proq asrab-avaylashga intilgan. Ularning xomiyligiga qattiq ishongan. Qadimgi insonning bunday ibtidoiy tasavvur-tushunchalari uning o'z aqliy va jismoniy kuchiga ishonchi orta borgani sayin o'zgara boshlagan. Endi inson o'z aql kuchiga tayanib, tabiatdan juda ko'p narsalar talab qila borgan. Tabiatdagi narsa-xodisalarga o'z taxsirini o'tkazib, turmush tarzi uchun turli narsalar bunyod etishga kirishgan. Jumladan, tog'u-toshlar orasidagi g'orlardan o'ziga boshpana topgan ibtidoiy odam tevarak-atrofga razm solib, undagi qushlarning, arilarning tajribasini asta-sekin o'zlashtira boshlaydi. Shu tariqa imoratlar bunyod etishga kirishgan inson endi shunga zarur bo'lgan qurilish materiallarini xam bevosita o'sha tabiat qo'ynidan ola boshlagan. Shunda ilk bor daraxtlar olamiga insonning xuruji boshlangan. Yoki g'orlarda yashab, turli jonivorlarning go'shti bilan oziqlanib, tirikchilik o'tkazib kelayotgan ibtidoiy inson uchun xayvonlar xam xomiy-madadkor sifatida totemistik tasavvur uyg'otgan. U katta va yirik xayvonlarni ovlaganida juda quvongan. Shu asosda unda kichik narsadan ko'ra katta narsaning manfaatliroq bo'lishi xaqida tushuncha paydo bo'la boshlagan. Mana shu alfozda qadimgi inson tasavvurida xajm tushunchasi asta-sekin paydo bo'la boshlagan.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz tabiatni jiddiy kuzatar ekan, undan o'zi uchun foydali ko'p narsalarni kashf etishga muvaffaq bo'lgan. Shu kuzatishlar zaminida inson tabiatdan nusxa ko'chirib, juda ko'p bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan. Masalan, ari uyasiga qarab, ko'p qavatli uylar qura boshlagan. Qushning parvozi samolyot yaratilishiga turtki bo'lgan. Quyoshga qarab, lampochkalar kashf etilgan va xokazo. Bularning barchasi kuzatish-tabiatni bilishning, tushunish va xis etishning eng asosiy vositasi ekanligini namoyon etadi. Shunday ekan, xozirgi yoshlar xam tabiat bilan yaqindan oshno tutinsinlar, uni jiddiy kuzatib, o'rganib borsalar, xali ko'p yangi narsalarni kashf qilishga musharraf bo'lishlari mumkin. Chunki tabiat azaldan insonni to'ydirib, yedirib, ichirib, kiyintirib kelayotgan ona kabi g'amxo'r va mexribondir. U xaligacha insondan o'z saxovatini darig' tutmay

kelayotir. Bunga javoban, insoniyat xam ona kabi mexribon tabiatni xar tomonlama asrab-avaylashi, uning boyliklaridan oqilona va rejali foydalanishi juda muximdir.

Demak, tabiatni asrash xar kimning insoniy burchidir. Tabiatni asrab avaylash qadimiy ajdodlarimizdan merosdir. Xalqda ekologik tarbiyani amalga oshirishning, o'z yo'llari bo'lgan. Bu boradagi Xalqona ananalarni o'rganish va ularning xozirgi turmush tarzimizga mos keladigan tomonlarini aniqlab, ekologik tarbiya jarayonida foydalanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalq orasida keng tarqalgan ayrim taxqiqlar xam bevosita ekologik tarbiyaga yo'naltirilganligi bilan diqqatni tortadi. Masalan, yong'oq, olma, o'rik, tut va xokazo mevali daraxtlarni chopish taxqiqlanadi. Chunki Xalq nazdida bu daraxtlar bir muncha tilsimlashtirilgan. Ularda yaxshi yoki yomon ruxlar manzil qurib olishi mumkin deb qaraladi. Shuning uchun bu daraxtlar bemavrid chopib tashlansa, ularda manzil qurgan ruxlar g'azabga kelib, chopgan insonga zarar yetkazishi mumkin deb tasavvur qilinadi. Qolaversa, yana ushbu daraxtlar mevali bo'lgani uchun insonga rizq-ro'z xadya etadi. Shu bois uni chopib tashlash bilan inson o'z rizqini o'zi qiygan bo'ladi. Yoki Xalq farzandni mevaga qiyos etgani uchun mevali daraxtlarga ozor yetkazish bilan inson o'z farzandiga ozor yetkazishi mumkin deb qaraladi.

Shunday qilib, Xalq orasida suvni, ayrim jonivorlarni, o'simlik va daraxtlarni asrab-avaylash maqsadida juda ko'p tabu-taxqiqlar yaratilgan bo'lib, yoshlarga ekologik tarbiya berishda samarali foydalanish mumkin.

Xullas, ekologik tarbiya insoniyat ijtimoiy va maxnaviy taraqqiyotining xar bir bosqichida o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. O'tmishning buyuk mutafakkirlari Abu Rayxon Beruniy, Ismoil Jurjoni, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar tabiatni asrash, unga mexr ko'zi bilan qarash lozimligini qayta-qayta uqtirganlar. Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» kitobida yil fasllarining tabiati va undagi o'zgarishlar, xavoning tabiiy xolatiga zid bo'lgan yomon o'zgarishlarning tasiri, ayrim kasalliklar va ularni davolash uchun ishlatiladigan sodda va murakkab dorilarga oid qator tavsiyanomalar bergan.

Beruniyning oxirgi asari «Dorivor o'simliklar xaqida» («Saydona») kitobida Sharqda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifi berilgan. (75,400-b). Forobiy olamning turli-tumanligini, tabiatning nixoyatda boyligini extirof etib, ularning asosida 4 unsur-yer, suv, olov va xavo yotishini, shu bilan birga, olamning ibtidosi, boshlang'ich yaratuvchi kuchdan nurlanish yordamida pog'ona-pog'ona vujudga kelganligini takidlaydi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruxiyatini, moddiy va maxnaviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. U o'simlik va insonga oid xususiyat va qobiliyatlarni bir butun xolda quvvat atab, uni o'sish quvvati, xayvoniy quvvat va insoniy quvvat tarzida uchga ajratadi. «Baxt saodatga erishuv xaqida»gi risolasida bilimlarni o'rganish tartibi birma-bir sanab o'tiladi: bilish zarur bo'lgan ilm, bu olam asoslari xaqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon xaqidagi ilmlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman jonli tabiat-o'simlik va xayvonlar xaqidagi ilm o'rganiladi. Uningcha kamolga yetish quruq intilishgina bo'lib qolmasdan, balki tabiatdagi juda ko'p narsalardan foydalanish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Shunday qilib, katta maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanish o'ta muxim muammolardan biri bo'lib, unga qiziqish XX asrning 30-yillaridan boshlangan bo'lsa-da, xozirgacha o'z ilmiy yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. O'zbek xalq topishmoqlarini ekologik yo'nalish asosida tasniflash, ulardan foydalanishning samarali vosita va usullarini ishlab chiqish, bolalarni xalq topishmoqlariga javob topishga o'rgatish va bolalarda topqirlik, xozirjavoblik xususiyatlarini xamda axloqiy-ekologik dunyoqarashini shakllantirishi singari masalalarni ilmiy nuqtai nazardan xal etish ko'p sonli tarbiyachilarga metodik yordam bo'lib xizmat qiladi

Adabiyotlar ro'yxati

1.Mirzayev T. , O'ofurov Z. Tabiatni exzozlash-umumbashariy muammo. Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2001,371 bet.

2. Musurmonova O., Baubekova G. O'zbek Xalq pedagogikasi. Toshkent: «Xalq merosi», 2000. 320 bet.

3. Qobilov Sh. Ekologiya qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlikni takomillashtirish muammolari. NDA, T, 2002, 22 bet.

4. G. Kushakova, Мактабдаги ёшдаги болаларни толерантлик рухида тарбиялаш, Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №58 (science.i-edu.uz, jspi.uz)